
MAHALLA FAOLLARINING BIR ISH KUNI

□ Xabaringiz bor, bugungi kunda har bir mahalla kundan-kun obod bo'lib, aholining yashash sharoiti kun sayin farovonlashib bormoqda. Bu albatta muhtaram Prezidentimizning olib borayotgan oqilona siyosatidir.

☞ Shu bilan bir qatorda mahalla fuqarolariga hamda yoshlariga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatib, amaliy yordam berib kelayotgan mahalla fuqarolar yig'ini raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori va yoshlar yetakchisining o'rni beqiyos. Qaysi mahallada mahalla faollari birlashib, mahalla rivoji uchun tunu kun xizmat qilayotgan bo'lsa, o'sha mahalla rivojlanmoqda.

□ Kundan-kun rivoj topayotgan mahallalardan biri Rishton tumandagi "Dasht Tegiromon" mahallasidir. Har kuni erta tongda mahalla beshligi birgalikda bir yoqadan bosh chiqarib mahalla idorasiga yig'ilib, bugun amalga oshiriladigan ishlar rejasini tuzib oladilar.

☞ Shundan so'ng mahalla idorasiga kelgan fuqarolarning muammo va takliflarini tinglab ularga o'z maslahatlarini berishadi. Shu bilan birgalikda mahallada xonadonma-xonadon yurib mahalladagi kam ta'minlangan va nogironligi bo'lgan fuqarolarning xonadonlariga borib ularning holidan xabar olishib ularga maslahat va takliflarini berib kelishmoqda. Bundan tashqari, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, ishsizlar sonini kamaytirishga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

???? Ta'kidlash joizki: mahalladagi har bir xonadon mahalla faollarining e'tiborida bo'lishi lozim.

2022-09-09 15:40:27